



**PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL SUPPORT THROUGH
ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT FOR
STUDENTS WHO HAVE BEEN IN LONG-TERM TREATMENT IN
PRIMARY EDUCATION**

Isamukhamedova Dildora Rahmatulaebyna

Acting Associate Professor (PhD) of the Department of “Surdopedagogy and
Clinical Fundamentals of Special Pedagogy”

Rakhimjonova O. Sh.

Faculty of Primary Education, 2nd year

student

Abstract. This article presents information on the formation of an educational environment for students who have been in long-term treatment, as well as on the pedagogical and psychological aspects of the formation of socio-pedagogical approaches to students in this regard.

Keywords: Primary education, treatment period, hospital pedagogy, pedagogical and psychological support, hospital schools, “Mehrli maktab”.

Аннотация. В данной статье представлена информация о формировании образовательной среды для студентов, оставшихся на длительном лечении, а также о педагогико-психологическом подходе к студентам в этом отношении.

Ключевые слова: Начальное образование, период лечения, госпитальная педагогика, педагогико-психологическое сопровождение, госпитальные школы.

Adabiyotlarda keltirilishicha kasalliklari tufayli bolalar maktabga bora olmaydilar shu sababli uzoq muddat shifohonalarda qolib ketishadi. Bu esa kasalhona muhitida qolib ketgan bolalarning ta'lim olishlari uchun maxsus sharoitlarni yaratilishiga, yangi pedagogik usullarni takomillashishiga o'z navbatida pedagogikaning yangi bosqichlarini rivojlanishiga olib sabab bo'lmoqda.[1].

Shu jumladan, bugungi kunda respublika hududida tashkil etilgan «Mehrli maktabning faoliyati, bu muassasada ta'lim olayotgan o'quvchilarning qiziqishlari,



xususan, ona tili va adabiyot faniga bo'lgan munosabati hamda bu fanga nisbatan qiziqishlarini mavjud holatidan yana yuqoriroq natijaga erishishda amaliy harakatlar olib borilmoqda [2].

Gospital ta'limda dars tashkil etish orqali bemor o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish yo'llari, o'yinli texnologiyalar asosida ularning ijodkorligini rivojlantirish mumkin.[3,4].

Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim va tarbiyani o'yinli texnologiyalar orqali tez va samarali o'rganadilar. O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. [5].

Gospital pedagogikada metodologik usullarni qiziqarli va samarali tashkil etish aynan maktab yoshidagi bemor bolalar juda muhim hisoblanadi.

Statistik manbalarda berilishicha ,tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, gospital maktablarda o'qigan o'quvchilarning 85 foizi o'z qiziqishlari va orzulari haqida so'zlab bergan bo'lsa, maktabga qatnamagan bemor bolalrning 10 tadan faqat 2 tasigina kelajak rejalari haqida so'zlab bergan.[6].

Bundan ko'rinib turibdiki, gospital ta'lim orqali bemor bolalarni psixologik jihatdan yashashga bo'lgan qiziqishlarini ta'lim berish orqali orttirishimiz mumkin. Kasalxonada davolanayotgan bola uchun shifokorlar tomonidan qo'yilgan tashxis, hayot tarzining keskin o'zgarishlari va davolanish natijasida kelib chiqqan jismoniy va ruhiy jarohatlar yosh rivojlanayotgan va himoyasiz bolalar uchun katta yukdir. Ammo,kasalxona maktabi dasturida qatnashish orqali maktab yoshidagi bolalar akademik maqsadlarga erishishda va tengdoshlari bilan o'zaro aloqada bo'lishda davom etishlari mumkin.[7,8]

Kasalhona sharoitida ta'lim beruvchi o'qituvchi dars mazmunli tashkil etishi uchun albatta kuchli tajribaga shuningdek tibbiy pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishlari kerak. O'qituvchi tomonidan o'qitishning samarali usullaridan foydalanishni bilishidadir. Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan har qanday muammoni o'qituvchilar tushunishi va hal qilish yo'llarini topishga rag'batlantirish sifatida taqdim etishlari kerak. O'qituvchi tayyor (hatto yagona to'g'ri) javob berishga shoshilmasligi, balki o'quvchilarning faol bo'lishiga imkon berishi muhim: o'z fikrlarini bildirishi, muhokamaga kirishishi, ularni qiziqtirgan savollarga javob bera olishi kerak. [9].

Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, shifoxona sharoitida o'qituvchining ishlashi tibbiy guruhlarni shakllantirish va o'quvchi muntazam ravishda ro'yxatdan o'tgan



maktab bilan birgalikda ta'lim olishiga qaratilgan tegishli tadbirlarni tashkil etish kerak, shu bilan bir qatorda uning ta'lim olish imkoniyatini mustahkamlash zarur.[10]. Лоскутов Александр Федорович fikriga ko'ra ba'zi adabiyotlarda kasalxona pedagogikasida o'ziga xos didaktik qonuniyatlar va tamoyillar tizimi taqdim etilgan.[,Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra kasalxona pedagogikasining turli xil modellarining paydo bo'lishi ma'lum bir kasallik turining xususiyatlariga bog'liqligiga asoslangan.[4].

Bundan ko'rish mumkinki, uzoq muddatli davolanishda qolib ketgan bolalarga dars o'tishda har bir jarayon tizimli va rejali bo'lib, katta mas'uliyatni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda gospital ta'lim darslarini qanday tashkil etish mumkin? Boshlang'ich sinflarda hozirgi kunda keng qo'llaniladigan kompyuter texnologiyalaridan foydalanib darsni tashkil etish, natijada samarali bilim berish hamda o'qituvchi o'zining pedagogik qolibiyatidan foydalanib darsni mazmunli o'tkazishi bo'yicha turli xil metodlardan foydalanishi mumkin.

Uzoq muddatli davolanishda qolib ketgan 1-4-sinf o'quvchilariga dars davomiyligi 30 daqiqa, bir kunlik dars mashg'ulotlari 3 soatdan iborat bo'ladi. O'quv haftasining davomiyligi esa 5 kundan iborat bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar (1-4-sinflar) jamiyat hayotini, bilimlarni o'yin orqali anglyadilar. O'yinli pedagogik usullar orqali biz ularga ta'lim va tarbiyani osongina berishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib gospital ta'linda boshlang'ich ta'lim dars mashg'ulotlarini turli xil ta'limiy metodlar va o'yinlar orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir.(Masalan, hozirgi kundagi eng ommaviy interfaol metodlardan:"Keystadi"(yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va boshqalarni olsak bo'ladi).

Keyingi o'rinda bilim olish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy multimedia texnologiyalaridan foydalanishni bilishi zarur. Multimediali darslarni joriy etishda ta'limning zamonaviy tizimidagi texnologiyalarni yetarlicha o'rgangan, ilmiy-amaliy bazalarni yahshi bilishi kerak.[4,10]

Uzoq muddatli davolanishda qolib ketgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tishda mavzular chuqurlashtirib o'rgatilmaydi, faqatgina mavzuga oid bo'lgan tushunchalarni shakllantirish kerak. Muntazam o'qish jarayoniga qaytganlaridan so'ng o'quvchilar ta'lim jarayonini qiyinchiliksiz davom ettira oladilar. Boshlang'ich sinflarda uzoq muddatli davolanishda qolgan o'quvchilarga pedagog sifatida ta'lim jarayonini uning salomatligini tiklash jarayoni bilan uzviylikda olib boriladi ya'ni har tomonlama rehabilitatsiya qilinadi. Pedagog o'z navbatida psixolog ham bo'lganligi uchun bemor o'quvchining psixologiyasidagi o'zgarishlarni tahlil



qila olishi va tahlil natijalariga ko'ra o'quv mashg'ulotining rejasini tuzishi kerak. Psixologik jihatdan o'quvchiga ijobiy ta'sir o'tkazishiga, ta'limiy-tarbiyaviy mahoratga hamda chuqur bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi va shu asnoda yaxshi va qiziqarli darsni tashkil qila olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- [1]. Гусев И. А. Ключевые этапы развития оспитальной педагогики в рамках модели проекта госпитальных школ России «УчимЗнаем» // Наука и школа. 2022. № 1. С. 149–161. DOI: 10.31862/1819-463X-2022-1-149-161.
- [2]. Hakimova N. Hospital maktab o'quvchilarini ona tili va adabiyot faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.//International scientific journal 2022.-v-1. -с 2181-3337.
- [3]. Alimova N.I., Tursunova D.Z., Turakulova N.B.Hospital ta'limda dars tashkil qilish // Iqro jurnali 2023.-С 2181-4341.
- [4]. Палаткина Г. В. Батыршин Р. И. Генезис госпитальной педагогики // Педагогические исследования. 2023. Вып. 2. С. 161–187.
- [5]. Goipova N.B. Inklyuziv ta'lim. Hospital pedagogika //Namangan – 2024. Darslik. 196-b.
- [6]. Yusupjonova Sh.M, Hospital ta'limda matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolar// Science and innovation international scientific journal 2022.
- [7]. Шариков С.В. «Создание образовательной среды для детей, находящихся на длительном лечении в стационарах медицинских учреждений». // Российский журнал детской гематологии и онкологии. № 3. 2015г.
- [8]. Csinády, R. V. Hospital pedagogy, a bridge between hospital and school. //Hungarian Educational Research Journal 2015.-V 5.-С 49-65, doi: 10.14413/herj.2015.02.04.
- [9]. Inogamova D.R. History of the development of hospital pedagogy in developed countries and in the republic of Uzbekistan.. // Журнал "Экономика и социум" 2024.Т-3. С-118.
- [10]. Scandelari L., Gonçalves,M.F., Fantacini. A.F. Hospital pedagogy: the pedagogical performance at hospital environments // Journal Research, Society and Development 2017, -V. 6. -Т 2.-С 171-187.